UO‘K:81.42

NUTQIY JANRLAR TIPOLOGIYASI VA EPIDEYKTIK NUTQ XUSUSIYATLARI

D.A.Nabiyeva, M.M.Azizova

Maqolada nutqiy janrlar tipologiyasiga ta’sir etuvchi omillar ko‘rsatilib, ushbu omillar ta’sirida tasnif mezonlarining o‘zgarishi isbotlangan. Ritorik nutq yoki epideyktik janrning til tizimida o‘ziga xos modellarni ifoda etuvchi, muayyan kommunikativ maqsadga yo‘naltirilgan, turli madaniy muhitlarda turlicha tavsiflanuvchi, yagona mavzu ostida birlashgan semantik-grammatik yaxlitlik, nutqiy butunlik ekanligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *nutqiy janr, ritorika, epideyktika, notiq, nutq, muloqot jarayoni.*

В статье показаны факторы, влияющие на типологию речевых жанров, и доказано, что под влиянием этих факторов изменяются критерии классификации. Выявлено, что риторический или эпидейктический жанр представляет собой семантико-грамматическое целое, речевое образование, выражающее определенные модели в системе языка, направленное на некую коммуникативную цель, по-разному описываемое в разных культурных средах и объединенное единой темой.

Ключевые слова: *речевой жанр, риторика, эпидейктика, оратор, речь, процесс общения.*

Kirish

Jonli muloqot mexanizmi favqulodda va sinergetik, beqaror jarayon bo‘lgani sababli uning janr xususiyatlarini belgilash, tiplashtirish bir qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shunga qaramay, janrshunoslar tomonidan turli lingvomadaniy muhitlarda turlicha namoyon bo‘luvchi va xalqning dunyoqarashi, ma’naviy, madaniy hamda maishiy ahvolidan darak beruvchi epideyktik nutqni qamrab oluvchi ritorika alohida janr sifatida e’tirof etiladiki, ushbu janrlarning har bir milliy til doirasida alohida tadqiqqa tortilishi dolzarb hisoblanadi.

Material va metodlar

Maqolada qo‘yilgan muammoni tahlil qilishda M.Baxtinning “Nutq janrlari muammolari” (“Проблемы речевых жанров”), V.Dementevning “Nutq janrlari nazariyasi” (“Теория речевых жанров”), S.Mensheninaning “Nutqlar tasnifi, epideyktik nutq janrlari” (“Классификация речей, жанры эпидейктической речи”) asarlariga tayanildi.

Muammoni o‘rganishda kuzatish, taqqoslash, sintezlash, tasniflash kabi tahlil usullaridan foydalanildi.

Hozirgi tilshunoslikda nutqiy janrlar tipologiyasi masalasida birxillik mavjud emas. Shunga qaramay, ularning barchasi Arastu tasnifiga asoslangan holda ritorik janrni alohida nutqiy janr sifatida e’tirof etadilar va ritorika tarkibida aloqa muhiti omiliga ko‘ra maslahat (konsultativ), sud-huquqiy (yuridik) va epideyktik (marosim, tantanali) janrlari ajratiladi.

O‘tgan asrning 50-yillarida e’tibor qaratilgan va M.Baxtin nomi bilan bog‘lanayotgan nutqiy janrlar va ularni tasniflash masalalari o‘z ildizlari bilan qadimgi yunon faylasuflarining, xususan, Arastuning falsafiy qarashlariga borib taqaladi. Olimning epideyktik nutq haqidagi qarashlari biz uchun, ayniqsa, e’tiborlidir. U epideyktik nutq, ya’ni maqtov nutqi fazilatlarni tasvirlovchi nutq ekanligini, fazilatlar esa ma’naviy go‘zal insonlarda bo‘lishini, inson fazilatlari uning faoliyatida, qilgan ishlarida ko‘rinishini ta’kidlaydi. Shuningdek, Arastu “Notiq tinglovchilarni o‘z maqtoviga ishontirish uchun qaysi muhitda (qaysi xalqda) qanday fazilatlar qadrlanishini bilishi kerak” [1. B. 262] ligiga alohida urg‘u beradiki, qadriyatlar, maqtovga loyiq ishlar turli jamiyat va millatlarda turlicha bo‘lishi mumkin. Arastu ritorikani muayyan bir fikrga tinglovchilarni ishontirishning mumkin bo‘lgan yo‘llari, usullarini topish san’ati (qobiliyati), deb biladi. Chunki isbotlash va rad etish, ehtirosli tuyg‘ularni (birga qayg‘urish, qo‘rquv, g‘azab kabi) uyg‘otish, shuningdek, ulug‘lash yoki kamsitish singari vazifalar bilan yo‘g‘rilgan fikrni ishonarli qilib ifoda etish uchun so‘zlovchidan o‘ziga xos muloqot kompetensiyasi talab qilinadi. Notiq va nutqning vazifalari uning tinglovchilariga qarab o‘zgarishini aniq tasavvur etgan faylasuf

nutqni maqsadi, vazifasiga ko‘ra uch katta guruhga bo‘ladi: 1. Kengashuv (maslahatlashuv) nutqi. 2. Adliya, sudlov nutqi (qoralovchi, oqlovchi, guvohlar va hokazo). 3. Epideyktik – tantanavor nutq. Bunda kengashuv nutqining maqsadi, vazifasi tinglovchilarga biror taklifni tasdiqlatishi yoki rad ettirishdan iborat bo‘lsa, adliya, sudlov nutqining vazifasi, maqsadi insonlarning qaysidir qilmishlari uchun ularni ayblash yoki oqlashdan iborat. Epideyktik nutqlarda (biror bo‘lib o‘tgan voqea, qahramonning faoliyati) maqtaladi yoki (dushmanlarning qilmishi) qoralanadi.

Ta’kidlash zarurki, nutqiy janrlar tarixi qadimgi Yunon notiqlik san’ati bilan bog‘lansa-da, ularning ilmiy-nazariy kamoloti zamonaviy tilshunoslikda M.Baxtin asos solgan va uning g‘oyalari asosida rivojlanib borayotgan janrshunoslik maktablarining genristik va janristik konsepsiyalarida ko‘rinadi. Unga ko‘ra, “har bir muloqot vaziyati nutqning muayyan janri yordamida shakllanadi: do‘stingizdan biror narsani iltimos qildingizmi, bu holatda iltimos janri bilan ish ko‘ramiz; mutoyiba qildingiz – bu holda mutoyiba janridan foydalandingiz. Nutq janrlari va ularning ortidagi muloqot vaziyatlarining ro‘yxatini cheksiz davom ettirish mumkin. Buning sababi esa insonning kundalik muloqot jarayonida to‘qnash keladigan muloqot vaziyatlarining turlichaligi bilan belgilanadi” [2. B. 4; 3; 4].

C.B.Menshenina nutqiy janrlarning nazariy masalalari, ya’ni genristika bilan shug‘ullanuvchi olimlarning, xususan, N.Koxtev, A.Mixalskaya va T.Matveeva kabilarning ilmiy qarashlarini tahlil etar ekan, ushbu olimlarning xulosalariga tayangan holda, yuqoridagi tasnif barcha sohalar va muloqot vaziyatlarini to‘liq qamrab ololmasligini, bu tasnifning mumtoz xarakterga ega ekanligini ta’kidlaydi [5]. Darhaqiqat, N.Koxtyev yuqorida qayd etilgan ritorik janrlar qatoriga akademik, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy janrlarni qo‘shish zarurligini [6. B. 8–15], A.Mixalskaya [7. B. 399–402] va T.Matveevalar [8. B. 304] esa janr xususiyatlarining erkinligi, spontanligi va mavjud stereotiplardan xoli ekanligi bilan ajralib turuvchi maishiy ritorikani ham alohida ajratish lozimligini qayd etadilar.

Qayd etish lozimki, muloqotning ajralmas uzvi bo‘lgan nutqiy janrlar, xususan, epideyktik janrlar til egalarining ijtimoiy, milliy-madaniy, kognitiv-pragmativ va mental xususiyatlaridan dalolat beruvchi muhim axborot manbaidir. Bu esa nutqiy janrlarni ko‘p aspektli murakkab hodisa sifatida baholashga imkon beradi. Qaysi aspektda baholanishiga ko‘ra esa uning tasnif mezonlari o‘zgarib boraveradi. Shu sababli “Nutq janrlari tipologiyasidagi turli qarashlar ushbu fenomenning jonli muloqot jarayonida aniq bir lingvokognitiv mexanizm asosida shakllanadigan mazmuniy-sintaktik yaxlitlik ekanligi bilan izohlanadi” [5].

Demak, nutq janrlari tipologiyasi masalaga qaysi jihatdan yondashishga bog‘liq holda farqlanishi mumkin. Xususan, nutq janrlarini tasniflashda nutq ishtirokchilari omili yetakchilik qilsa, monologik, dialogik va polelogik janrlarni; mazmuniy-funksional jihati nazarda tutilsa, xabar, tasvir va kuzatish janrlarini; ijtimoiylik omili ustuvor bo‘lganda, shaxsiy va professional sohalardagi nutq janrlari [7]; nutq maqsadi omili asos bo‘lganda, ko‘ngilochar, informativ va taklifiy (chaqiruvchi) [9. –C.14-17.] kabi guruhlarga bo‘linadi. Lekin bu tasnif nisbiy bo‘lib, boshqa omillarning qo‘shilishi natijasida o‘zgarishga uchrashini ta’kidlash lozim.

K.F.Sedov ham tilshunoslikda yangi paradigmaning maydonga kelishi – til faktlariga antroposentrik yondashuv jonli muloqot nutqi va uning xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan yangi fanning kollokvialistikaning shakllanishi va rivojlanishiga asos bo‘lganini e’tirof etib, kollokvialistikaning rivoji, o‘z navbatida, kommunikativ lingvistikaning maydonga kelishiga zamin yaratganini qayd etadi [10]. Kommunikativ lingvistikaning predmetlaridan biri – bu, albatta, samarali muloqot masalasidir. Olimning ta’kidlashicha, kommunikativ lingvistika doirasida samarali nutq ko‘nikmasini shakllantirishning amaliy tizimi sifatida ritorikaga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Notiqlik san’atining klassik an’analariga murojaat etilishi natijasida esa zamonaviy tilshunoslikda yangi yo‘nalish – nutqiy ta’sir etish nazariyasi yoki neoritorika maydonga keldi va kishilik jamiyatida insonlarni qurshab turuvchi barcha ijtimoiy sohalar uning o‘rganish ko‘lamiga kiritildi. Tilshunoslikning bu sohasi ham boshqa sohalar kabi dialektik tabiatga ega bo‘lib, o‘zida umumiylik va xususiylik munosabatlarini aks ettirishi ta’kidlanadi. Bunda etnosda ajralib turuvchi muayyan ijtimoiy soha xususiy ritorikaning tug‘ilishiga asos bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bugungi kunda gomiletika, pedagogik, rasmiy, yuridik, harbiy ritorikalarning mavjudligi; tibbiy, siyosiy, reklama va ommaviy axborot ritorikasining hamda maishiy ritorikaning shakllanayotganini e’tirof etadi [10]. Ta’kidlash lozimki, genristik nuqtayi nazardan nutq – bu ijtimoiy munosabatlar jarayonida muloqotga kirishish tarzidir. Bunda ijtimoiy borliq ustuvorligi bois nutqiy tizimlilikda ijtimoiy mavjudlik aks etadi.

Ommaviy epideyktik nutqning janr xususiyatlarini o‘rganishni maqsad qilgan S.Aliyeva tantanali nutqning mavzusini belgilashda holatga qarab qo‘yilgan aniq vazifalar, tadbir mazmuni, so‘zlovchining shaxsiy qiziqishlari kabi omillarni e’tiborga olish zarurligini, bunday nutqning maqsadi muayyan ijtimoiy, axloqiy muammolarni hal qilishda jamoatchilikni birlashtirishdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Uning qayd

etishicha, tantanali nutqning janr xususiyatlari uning mazmuniy va shakliy tuzilish xususiyatlari bilan belgilanadi [11].

Aslida, nutq janrlarining umumiy kompozitsion modeli mavjud bo‘lib, u ma’lum nutqiy vaziyatga asoslanib tanlangan janrning semantik xususiyatlariga qarab o‘zgarishi mumkin. Nutq janrlarining nutqiy vaziyat va notiq niyatiga bog‘liq bo‘lishi hamda jumla tarkibiy elementlarining uning kompozitsion tuzilishiga ta’siri M. Baxtinning nutq janrlari nazariyasida alohida ta’kidlangan. M.Baxtin jumlani yaxlit hodisa sifatida ko‘rib chiqib, uning tematik mazmuni, uslubi va kompozitsion tuzilishi o‘zaro bog‘liq ekanligini tan oladi va bu elementlar har qanday muloqot sohasida teng ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi. Olimning fikriga ko‘ra: “Har bir jumla, albatta, o‘ziga xos, ammo til qo‘llaniladigan har bir soha shunday jumlalarning nisbatan barqaror turlarini ishlab chiqadi” [12. B. 159]. Bundan ko‘rinadiki, “nutqiy janrni tartiblashtiruvchi va qolipga keltiruvchi asosiy element uning kompozitsiyasi sanaladi. Kompozitsiya tushunchasi nutqiy janrlar tarkibida muayyan maqsadga yo‘naltirilgan qolipning ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan tartiblashtirilgan ifodasidir” [13. B. 27]. Masalan, epideyktik nutqni tashkiliy elementlari hisoblanuvchi tabrik va qadah so‘z nutqiy janrlarida maqsad, kompoziṭsiya va uslubning mavjudligi ular uchun umumiy, lekin har ikki nutqiy janrda nutqiy maqsadning mohiyati, o‘ziga xos mazmuniy ketma-ketlikdagi kompozitsion tuzilishi ularning xususiy jihatlaridir.

Tantanali nutqning kompozitsion tuzilishi xususida fikr yuritar ekan, S.Aliyeva uning kirish, asosiy qism va yakunlovchi qismlardan iborat ekanligini ta’kidlagan holda, ushbu qismlarning har biri o‘ziga xos bayon usuliga ega ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, biror holat, vaziyat bilan bog‘liq tantanali nutqning kirish qismida shu holat, vaziyat e’lon qilinadi: bunda “....bag‘ishlangan anjumanni ochiq deb e’lon qilar ekanmiz”, “bugun katta tantana”, “...oqshomga to‘plangan ekanmiz” kabi jumlalarning keltirilishi kifoya. Kirish qismda notiq nutq vazifasini belgilab olishi zarur. Asosiy qismda fikr rivojlantiriladi va turli dalillar bilan isbotlanadi. Nutqning yakunlovchi qismi esa o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, tilak bildirish yoki xayrli amallarni bajarishga undash bilan tugashi mumkin [11].

Epideyktik nutqning tipologik masalalariga e’tibor qaratgan S.V.Menshenina ham kompozitsion izchillik bu janrning muhim belgisi ekanligini qayd etadi. Uning fikricha:

Kirishda – nutq sababi va auditoriya aniq belgilanadi.

Asosiy qismda – faktik materiallar orqali nutq mazmuni yoritiladi.

Yakuniy qismda – ezgu tilak va muloqotni yakunlash uchun xayrlashuv ifodalari ishlatiladi.

Bundan tashqari, olim epideyktik nutqning elokutsion bosqichida tasviriylik, o‘ziga xoslik, nutq me’yorlaridan chetlanish va andozalardan chiqish muhim xususiyatlar ekanini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, metafora, epitet, ritorik tropalar (anafora, gradatsiya, ritorik savol, parsellyatsiya) ushbu janr ta’sirini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi [5].

S.V.Shatalova epideyktik nutqning umumiy tashqi o‘xshashliklariga qaramay, har bir tantanali nutq o‘ziga xos individual xususiyatlarga ega ekanini qayd etadi. Xususan:

Notiqning shaxsiy uslubi.

Mazmunni ifodalash uchun material tanlovi.

Muallif “men”ini aks ettiruvchi vositalar (metafora, metonimiya, qiyos, ritorik savollar, tematik va leksik takrorlar, xalq og‘zaki nutqining sintaktik konstruksiyalari).

S.V.Shatalova epideyktik nutqni zamonaviy ritorik tizimda mustaqil tizim sifatida baholab, yubiley nutqlarini alohida ajratadi: tabrik, bayram nutqlarini rasmiy janr sifatida; minnatdorchilik, taklif, nekrologlarni esa maishiy janr sifatida tasniflaydi.

Shuningdek, yubiley, madh nutqlari va nekrologlar “katta janr shakllari” bo‘lsa, tabrik, minnatdorchiliklar “kichik janr shakllari” hisoblanadi [14. B. 38].

E’tibor berilsa, S.V.Shatalova tomonidan ajratilgan “katta” va “kichik” janrlar faqat hajmi va vaziyat xususiyatlari bilan farqlanadi. Lekin ichki tuzilishi, xususan, muallif niyati va kompozitsion hamda uslubiy jihatdan farqlanish sezilmaydi. Tilshunosning o‘zi ham buni ta’kidlagan holda, kichik janrlarning rivojlanishi kattalarga nisbatan faolroq ekanligini e’tirof etib, buni ularga bo‘lgan ehtiyoj bilan izohlaydi. Darhaqiqat, maishiy hayotimizda o‘zaro muloqotga kirishar ekanmiz, muloqot odobining madaniy xoslangan ko‘rinishlari, xususan, salomlashish, hol-ahvol so‘rash, xayrlashish, dalda berish, qasam ichish, duo qilish, tabrik aytish kabi janrlardan keng foydalanamiz. Bu insonlarning muloqot tarzi, kundalik hayotimizning tashkiliy elementidir. Zotan, “Inson o‘z hayotiy faoliyati davomida turli sharoitlarda kommunikatsiyaga kirishadi, nutqiy faoliyat turlarining xilma-xilligi esa nutqiy janrlar ko‘lamini kengaytiradi. Insonning o‘z fikrini bildirish maqsadining nutqiy voqelanishi o‘ziga xos vaziyat, shu vaziyatga tegishli atamalar, maxsus grammatik qurilmalarning nutqiy janrda aks ettirilishi bilan xarakterlanadi” [15. B. 60]. Shu bois Y.M.Lotman har bir nisbatan rivojlangan madaniyatga ega bo‘lgan jamoada insonlarning xulq-atvori 1) jamoa vakillari tomonidan tabiiy, me’yoriy deb qabul qilinuvchi maishiy, kundalik, oddiy hamda 2) tantanali, marosimlashgan xulq-atvorlari-

ning barcha ko‘rinishlari zidligi asosida shakllanishini e’tirof etadi [16. B. 249].

Sh.Iskandarova ham nutqiy odat ma’lum millat vakillarining nutqida atrof-muhit, sharoitlar, urf-odatlar ta’sirida shakllangan bo‘lishini ta’kidlagan holda, nutqiy odat birliklarini o‘rinli qo‘llash uchun muloqot ishtirokchilarining ma’lum mahoratga ega bo’lishi muhim emasligini qayd etadi [17. B. 7]. Shu jihatdan olib qaralganda, “kichik” janrlar, xususan, tantanali nutq kompozitsiya ritorik diskursning boshqa janrlariga nisbatan erkindir. Bunday erkinlik, ayniqsa, qutlov va ziyofat nutqlari uchun xos bo‘lib, ularning voqelanish shakllari va madaniy xoslanishi kabi masalalar tadqiqotimizning keyingi boblarida batafsil tahlilga tortiladi.

K.V.Kojevnikova nutqiy janrlar tasnifida kommunikativ aspektga tayanish lozimligini qayd etib, unga ko‘ra 1) obligator-informativ modeldagi matnlar; 2) mazmuni uzual-informativ modelga asoslangan matnlar; 3) chegaralanmagan (reglamentlashmagan) matnlarni ajratadi [18. B. 49–67].

Natijalar va muhokamalar

Nutqiy janrlarning tasnifi bilan bog‘liq fikrlar xilmaxilligi ularning ko‘pqirrali hodisa ekanligidan dalolat beradi. Janrlarga qaysi rakursdan baho berilishiga qarab ularning tasnif mezonlari o‘zgaraveradi. Shu jihatdan olib qaralganda, keltirilgan tasniflarning barchasi nutqiy janrlarning xususiy belgilarini har taraflama o‘rganib, ularning eng muhimlarini ajratishga asoslanganini bilan e’tirofga loyiqdir. Chunki nutqiy janr bu – nutqda maqsadli, tugal jumlalarning ketma-ket aytilishi, boshqacha aytganda, inson nutqiy faoliyatining mahsuli ekan, inson faoliyati turlarining xilma-xilligi nutqiy janrlar ko‘lamini, so‘zsiz, kengaytiradi. “Zero, inson faoliyati, qaysi jabhada bo‘lmasin, biznes, diplomatik aloqalar, diniy jarayonlar, internet, media, davlat va jamiyat boshqaruvi, pazandachilik, chorvachilik kabi hayotning barcha sohalaridagi faoliyati nutqiy voqelanish, so‘zlashish asosida kechadi. Muayyan faoliyatda inson maqsadining nutqiy voqelanishi o‘ziga xos muhit, shu muhitga tegishli atamalar, maxsus grammatik qurilmalar, ushbu qurilmalarning mujassamligi nutqiy janrda aks ettirilishi bilan xarakterlanadi” [13. B. 35]. Shuni ham alohida qayd etish zarurki, nutqiy janrlarning sinfiy mansubligi mutlaq emas. Ular sinfiy o‘zgarishga moyildir. O‘z davrida M.Baxtin ham “nutqiy janrlar qayta aksentualizatsiyaga beriluvchan” [12. B. 192] ligini ta’kidlagan edi.

V.V.Dementyev hozirga qadar nutqiy janrlarning 250 ga yaqin tiplari aniqlangan bo‘lishiga qaramay, nutqiy janrlar tasnifi masalasi o‘z poyoniga yetmaganini ta’kidlaydi. Buning sababini esa u janrlarning rang-barangligi va variativligi hamda nutqiy janrlarni tasniflash antinomiyalari va ushbu antinomiyalar asosida yuzaga kelgan murakkab tasnif usullari (uch va undan ortiq tipdagi tasniflar) bilan izohlaydi. V.M.Kitaygorodskaya va N.N.Rozanovalar esa janrlar tasnifida vaziyatlar tipologiyasini muhim deb bilgan holda, “jamiyat etnotaksonimiyasi”ning maxsus va ishonchli metodlarining mavjud emasligi nutqiy janrlar tasnifida qiyinchiliklarni keltirib chiqarishini qayd etgan edilar [19]. V.V.Dementyev tasniflash antinomiyalariga birlamchi (oddiy) va ikkilamchi (murakkab), ritorik va ritorik bo‘lmagan, konvensional va konvensional bo‘lmagan, fatik va informativ janrlar va boshqalarni kiritish mumkinligini e’tirof etadi [4. B.155]. Olim fatik va informativ janrlar antinomiyasida, ayniqsa, fatik nutqiy janrlar uchun shaxslararo muloqot jarayonida axborot uzatishda suhbatdoshning kayfiyatiga salbiy ta’sir etmaslik yoki ziddiyatlarni keltirib chiqarmaslik kabi holatlar uchun qulay vositalarning tanlanishi muhimligini alohida qayd etadi. Shundan kelib chiqib, nutqiy janrlarni to‘liq fatik, to‘liq informativ va aralash nutqiy janrlarga (fatik + informativ) ajratadi. Bunda karashma, hazil, o‘yin, mazax, maqtanchoqlik, piching (ironiya) kabilarni to‘liq fatik; shaxsiy neytral bo‘lgan savol va javob tarzidagi janrlarni to‘liq informativ; dildan suhbat, kompliment, tilak, janjal, ayblov, haqorat, nikoh, jarima, ultimatum kabilarni aralash turdagi nutqiy janrlarga kiritadi [20. B.34–44].

N.D.Arutyunova ham nutqiy janrlar tipologiyasi yuzasidan fikr bildirib, ularning tasnifida nutqiy janrlarning dialogik xususiyatlariga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlagan holda, dialogik xarakterdagi nutqiy janrlarning besh guruhini ajratadi: d-1 – informativ dialoglar, d-2 – preskriptiv dialoglar, d-3 – haqiqatni aniqlash yoki qaror qabul qilish maqsadida fikr almashish tipidagi dialoglar, d-4 – o‘zaro munosabatlarni o‘rnatuvchi yoki nazorat qiluvchi dialoglar, d-5 – tantanali (emotsional, artistik, intellektual) dialoglar [4. B. 150]. Qayd etish lozimki, janr tipologiyasi bilan bog‘liq ilmiy tahlillarning barchasi muayyan lingvomadaniyatda mavjud janrlarning turli aspektlarini turli rakursdan turib umumlashtirish imkonini beradi. Shu jihatdan olib qaralganda, epideyktikning janr xususiyatlari va uni tashkil etuvchi janrlarni o‘rganish asosida muayyan jamiyatning, xalqning lisoniy ongida shakllangan madaniy stereotiplar haqida xulosa chiqarish mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, epideyktik nutq nutqiy janrlar tizimida o‘ziga xos “vaziyat nutqi” sifatida alohida sinfni shakllantiradi. Ushbu nutq so‘zlanadigan vaziyatlarning rasmiy, norasmiy va maishiy kabi turlarga ajratilishi epideyktik nutq tarkibida ham

shunga muvofiq janrlarning ajratilishini belgilaydi. S.V.Menshenina rasmiy muloqotning vaziyatlari sifatida davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan va professional bayramlarni, tantanali marosimlarni, xususan, anjuman, festival, marafonlar, qurultoy, sport musobaqalari, ko‘rgazmalarning ochilishi va yopilishi kabilarni; norasmiy, lekin o‘ziga xos ilhombaxsh kayfiyat bilan belgilanuvchi nutq vaziyatlariga oilaviy tadbirlar, masalan, tug‘ilgan kun, do‘stlar davrasidagi ziyofatlar, to‘y marosimlari kabilarni kiritadi [5]. Olima “janr” tushunchasining nazariy jihatdan anglanishi u yoki bu ritorik janrlar doirasida amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilishiga asos bo‘lishini ta’kidlagan holda, ritorik janr spetsifikasini, uning belgilarini bilish, tanlangan janrga adekvat vaziyatni aniq belgilay olish ko‘nikmasining shakllanishi muloqot samaradorligini maksimal darajada ta’minlashga xizmat qilishini alohida qayd etadi [5].

O‘zbek tilshunosligida ham bevosita “nutqiy janr” deb baholanmasa-da, xoslangan nutq xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar uchraydi. Xususan, B.O‘rinboyev o‘zbek so‘zlashuv nutqi xususiyatlarini tizimli tahlil etish jarayonida so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lgan vokativlik kategoriyasiga alohida e’tibor qaratdi. Olimning qayd etishicha, “so‘zlashuv nutqi jonli, hayotiy nutqdir. Unda kishilarning kundalik turmushdagi o‘zaro munosabatlari, ijobiy va salbiy xususiyatlari o‘z ifodasini topadi” [21. B. 57]. Unda muloqot ishtirokchilarining kommunikativ niyatidan kelib chiqib, turli nutqiy vaziyatlarni aks ettiruvchi jarayonlar, xususan, salomlashish, xayrlashish, murojaat, da’vat, ishontirish, tabrik, izhor, ta’ziya bildirish, ogoh etish, duo qilish, tilak aytish, qarg‘ish kabi aktlar natijasida yuzaga keluvchi janrlar ko‘plab uchraydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ritorik janrlar ijtimoiy hayotimizning, xususan, kundalik muloqotimizning ajralmas uzvi sifatida jamiyat taraqqiyotidagi har qanday evrilishlarni o‘zida aks ettiradi. Shu jihatdan ularning tadqiqi bilan bog‘liq masalalar hamisha aktualdir.

Xulosa

Tahlil qilingan ilmiy-nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, lingvistika fanida janr murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, turli xil talqin qilinishi mumkin. Nutq janrlarining ko‘plab tasniflari mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning to‘liq izchil va umumiy qabul qilingan tasnifi mavjud emas. Shunga qaramay, mavjud tasniflarning barchasida epideyktik nutq yoki epideyktik janr nutq janrlari tipologiyasida alohida o‘rin egallaydi. Nutq janrlari bo‘yicha olib borilgan barcha tadqiqotlarda epideyktik nutq “vaziyatli nutq”, “tantanali nutq” sifatida e’tirof etiladi va uning ommaviy shakllari (turli bayramlar yoki davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan tantanalar doirasidagi nutqlar) hamda xususiy-maishiy shakllari (tug‘ilgan kun tabriklari, to‘y qutlovlari, oilaviy yoki korporativ bayramlar, do‘stona uchrashuvlar, turli marosimlar) farqlanadi. Darhaqiqat, jamiyatni nutqiy muloqotsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Har qanday jamiyat, kichik yoki katta bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z a’zolari tomonidan qabul qilingan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari va qoidalariga ega bo‘ladi. Shu bois har qanday “uchrashuv” belgilangan qoidalar va me’yorlarga muvofiq nutqiy hamkorlik shaklida amalga oshadi. Bir qarashda oddiy va oson tuyuladigan ritorik masala aslida o‘ziga xos murakkablik kasb etadi. Chunki ritorik janrda samarali nutq yaratish notiqdan voqealarni tasvirlashda ijodiy yondashuvni talab etadi.

Adabiyotlar:

1. *Арасту.* Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. / Таржимонлар Зоҳир Аълам ва Урфон Отажон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 352 б.

2. *Акулова Е.В*. Жанры немецкого повседневного общения. – Саратов: Саратовский государственный университет им. НГ Чернышевского, 2011. – 99 с.

3. *Седов К.Ф.* Предисловие / В кн.: Антология речевых жанров: повседневная коммуникация. – М.: Лабиринт, 2007. – 320 с.

4. *Дементьев В.В.* Теория речевых жанров. – Москва: Знак. 2010. – 600 с.

5. *Меньшенина С.В*. Классификация речей, жанры эпидейктической речи. [Электронный ресурс]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ klassifikatsiya-rechey-zhanry-epideykticheskoy- (Дата обращения: 01.02.24.)

6. *Кохтев Н.Н*. Риторика. – Санкт-Петербург: СПб ГУ ИТМО, 2005. – 81 с.

7. *Михальская А.К*. Основы риторики. Мысль и слово. – Москва: Просвещение, 1996. – 417 с.

8. *Матвеева Т.В.* Учебный словарь. Русский язык. Культура речи. Стилистика. Риторика. -3-е изд. – Москва: Флинта, 2019. – 415 с.

9. *Сопер Л.П*. Основы искусства речи. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2002. – 441 с.

10. *Седов К.Ф*. Языкознание. Речеведение. Генристика. [Электронный ресурс]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/yazykoznanie-rechevedenie-genristika/viewer (Дата обращения: 08. 04.2024)

11. *Алиева С*. Некоторые жанровые особенности эпидейктической публичной речи [Электронный ресурс]. URL: https://infourok.ru/nekotorie-zhanrovie-osobennosti-epideykticheskoy-publichnoy-rechi. (Дата обращения: 18. 05.2024)

12. *Бахтин М.М.* Проблема речевых жанров / В кн.: Собрание сочинений: в 7 томах. Том 5. Работы 1940-1960 гг. – Москва: Русские словари, 1996. – С.159– 206.

13. *Хасанова Ф.* Инглиз ва ўзбек тилларида қасамёд нутқий жанрининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол.фан.б. докт.(PhD) ...дисс. – Тошкент, 2019. – 151 б.

14. *Шаталова С.В*. Эпидейктические жанры речи: Автореф. дисс….канд.филол.наук. – Ярославль, 2009. – 22 с.

15. *Нурмонова С.Д.* Ўзбек тилидаги қасам нутқий жанрининг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.б. докт. (PhD) ...дисс. – Андижон, 2022. – 156 б.

16. *Лотман Ю.М*. Культура и взрыв. – Москва: Гнозис, 1992. – 273 с.

17. *Искандарова Ш*. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. –15 б.

18. *Кожевникова К.В*. Синтаксис текста Об аспектах связности в тексте как в целом / В кн.: Синтаксис текста. – Москва: Наука, 1979. – С.49–67.

19. *Габуниа З.М., Кремшокалова М.Ч*. «Жанр речи» как единица современной лингвистики [Электронный ресурс]. URL: file:///C:/Users/Users/Downloads/eug,+cre_10_01.pdf (Дата обращения: 10. 04. 2024.)

20. *Дементъев В.В*. Фатические и информативные коммуникативные замыслы и коммуникативные интенции: проблемы коммуникативной компетенции и типология речевых жанров // Жанры речи. Вып. 1. – Саратов, 1997. – С. 34–44.

21. *Ўринбоев Б*. Ўзбек сўзлашув нутқи. –Тошкент: Фан, 1982. – 152 с.

TYPOLOGY OF SPEECH GENRES AND THE PROPERTY OF EPIDEICTIC SPEECH

Dilora A. Nabieva[1], Mohinur M. Azizova[2]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 1(85). 87-94.

[1] Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

[2] Kokand State Pedagogical Institute, Kokand, 150700, str. Turon, 23 (Uzbekistan). E-mail: kspi_info@edu.uz

Key words: *speech genre, rhetoric, epideictics, orator, speech, communication process.*

Since the mechanism of live communication is an extraordinary, synergetic, unstable process, the definition and typification of its genre features causes a number of difficulties. In addition, this process manifests itself differently in different linguistic and cultural environments, naturally, this situation is reflected in their typology. In modern linguistics, there is no unity among genre scholars on the issue of the typology of speech genres. However, they all recognize the rhetorical genre as a separate speech genre, based on Aristotle's classification. In rhetoric, epideictic genres are separately noted, which differ in different linguistic and cultural environments and indicate the ideological, spiritual, cultural and everyday conditions of the people, which makes it relevant to study these genres separately within each national language.

There is a general compositional model of speech genres, which can change depending on the semantic features of the chosen genre based on a particular speech situation. The dependence of speech genres on the speech situation and the speaker's intention, as well as the influence of the constituent elements

of a sentence on its compositional structure, is emphasized in M. Bakhtin's theory of speech genres. The main element that organizes and forms a speech genre is its composition. The concept of composition is an organized expression of a template directed toward a specific goal within the framework of speech genres" [13. P. 27]. For example, the presence of a goal, composition and style in the speech genres of greeting and glass of speech, which are considered organizational elements of epideictic speech, are common to them, but the essence of the speech goal in both speech genres, the compositional structure in a certain semantic sequence are their special aspects

Epideictic speech forms a special class in the system of speech genres as a type of "situational speech". The division of these speech situations into formal, informal and everyday types also determines the division of genres in epideictic speech. S.V.Menshenina, as situations of official communication, state and professional holidays, formal ceremonies, in particular conferences, festivals, marathons, conventions, sporting events, opening and closing ceremonies of exhibitions; includes family events such as birthdays, parties with friends, wedding ceremonies, etc., to speech situations characterized by an informal but inspiring mood [5]. Emphasizing that the theoretical understanding of the concept of "genre" is the basis for developing practical recommendations within the framework of a particular rhetorical genre, the scientist notes that knowledge of the specifics of a rhetorical genre, its characteristics, and the development of the ability to accurately determine a situation suitable for the chosen genre serves to ensure maximum communication efficiency [5].

Nevertheless, in all existing classifications, epideictic speech or epideictic genre occupies a special place in the typology of speech genres. In all studies conducted on speech genres, epideictic speech is recognized as "situational speech", "ritual speech" and its public forms are distinguished (speeches within the framework of various holidays or celebrations of national importance) and private and everyday forms (birthday greetings, wedding greetings, family or corporate celebrations, friendly meetings, various rituals). Indeed, it is impossible to imagine a society without verbal communication. In any society, regardless of whether it is large or small, there are norms and rules of social behavior accepted by its members. Therefore, any "meeting" takes place in the form of verbal cooperation in accordance with established rules and norms.

References:

1. Arastu. (2011) Poetika. *Axloqi kabir. Ritorika* [Poetics. Akhloqi kabir. Rhetoric]. Translators Zohir A'lam va Urfon Otajan. Tashkent: Yangi asr avlodi.

2. Akulova, E.V. (2011) *Janry nemeckogo povsednevnogo obshcheniya* [Genres of German Everyday Communication]. Saratov: Saratovskij gosudarstvennyj universitet im. NG Chernyshevskogo.

3. Sedov, K.F. (2007) Predislovie [Preface]. In: Antologiya rechevyh zhanrov: povsednevnaya kommunikaciya [Anthology of Speech Genres: Everyday Communication]. Moscow: Labirint.

4. Dement'ev, V.V. (2010) *Teoriya rechevyh zhanrov* [Theory of speech genres]. Moscow: Znak.

5. Men'shenina, S.V. (2005) Klassifikaciya rechej, zhanry epidejkticheskoj rechi. [Online]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ klassifikatsiya-rechey-zhanry-epideykticheskoy- (Date of Access: 01.02.24.)

6. Kohtev, N.N. (2005) *Ritorika* [Rhetoric]. Sankt-Peterburg: SPb GU ITMO.

7. Mihal'skaya, A.K.(1996) *Osnovy ritoriki. Mysl' i slovo* [Basics of rhetoric. Thought and word]. Moscow: Prosveshchenie.

8. Matveeva, T.V. (2019) *Uchebnyj slovar'. Russkij yazyk. Kul'tura rechi. Stilistika. Ritorika* [Educational dictionary. Russian language. Culture of speech. Stylistics. Rhetoric]. Moscow: Flinta.

9. Soper, L.P. (2002) *Osnovy iskusstva rechi* [Fundamentals of the art of speech]. Rostov-na-Donu: Feniks.

10. Sedov, K.F. (2012) *Yazykoznanie. Rechevedenie. Genristika* [Linguistics. Speech science. Henristika]. [Online]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ yazykoznanie-rechevedenie-genristika/ viewer (Date of Access: 08. 04.2024)

11. Alieva, S. Nekotorye zhanrovye osobennosti epidejkticheskoj publichnoj rechi [Online]. URL: https://infourok.ru/nekotorie-zhanrovie-osobennosti-epideykticheskoy-publichnoy-rechi. (Date of Access: 18. 05.2024)

12. Bahtin, M.M. (1996) Problema rechevyh zhanrov [The problem of speech genres]. In: Sobranie sochinenij [The problem of the text. Collected works]. Vol. 5. Raboty 1940-1960 gg. [Works of the 1940-1960s]. Moscow: Russkie slovari. Pp. 159-206.

13. Hasanova, F. (2019) Ingliz va o'zbek tillarida qasamyod nutqiy janrining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Tashkent.

14. Shatalova, S.V. (2009) Epidejkticheskie zhanry rechi [Epideictic genres of speech]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Yaroslavl'.

15. Nurmonova, S.D. (2022) Linguistic and cultural study of the swearing speech genre in the Uzbek language [The development of Uzbek language skills in the field of linguistic data]. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Andijan.

16. Lotman, Yu.M. (1992) *Kul'tura i vzryv* [Culture and explosion]. Moscow: Gnozis.

17. Iskandarova, Sh. (1993) O'zbek nutq odatining muloqot shakllari [Communication forms of Uzbek speech tradition]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Samarqand.

18. Kozhevnikova, K.V. (1979) *Sintaksis teksta Ob aspektah svyaznosti v tekste kak v celom* [On aspects of coherence in the text as a whole]. In: Sintaksis teksta [Text syntax]. Moscow: Nauka. Pp. 49-67.

19. Gabunia, Z.M., Kremshokalova, M.Ch. (2014) «Janr rechi» kak edinica sovremennoj lingvistiki [Online]. URL: file:///C:/Users/Users/Downloads/eug,+ cre_10_01.pdf (Date of Access:10. 04. 2024.)

20. Dement"ev, V.V. (1997) Faticheskie i informativnye kommunikativnye zamysly i kommunikativnye intencii: problemy kommunikativnoj kompetencii i tipologiya rechevyh janrov [Phatic and informative communicative plans and communicative intentions: problems of communicative competence and typology of speech genres]. Janry rechi [Speech genres]. Issue 1. Saratov. Pp. 34-44.

21. O'rinboev, B. (1982) *O'zbek so'zlashuv nutqi* [Uzbek colloquial speech]. Tashkent: Fan.

Mualliflar haqida ma'lumot:

NABIYEVA Dilora Abduhamidovna – filologiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasi professori. E-mail: diloranabieva385@gmail.com

AZIZOVA Mohinur Muzaffarjon qizi – Qo'qon davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi. E-mail: mokhinurazizova95@gmail.com